



M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI**

*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*

## **TAHRIR HAY'ATI:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ**

**Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**



# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) .....	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudojberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов .....	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanshida	
qо'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati.....	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarlari tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruв kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....	36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдона Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей .....	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish.....	52
Sotiboliyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi .....	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth .....	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv .....	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi .....	70
Abdullahayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish .....	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
O специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении .....	80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati .....	84
Jorayeva Sohibiamol Norgobilovna	

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Ekspериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе "Руководитель - Подчиненный" .....	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari .....	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich .....	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash .....	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi.....	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari.....	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Kopинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде .....	113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна	
Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish.....	117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова "Отверзи мне двери" и Улугбека Хамдама "Бунт и смирение" .....	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development.....	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni .....	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish .....	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari .....	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrleshga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish .....	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak .....	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning bilingual rivojlanish .....	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Vliyanie igrovoy deyatel'nosti v processe izucheniya anglijskogo jazyka v doo.....	157
Ergashewa Kamola Alisherovna	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children .....	161
Gaukhara Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	

# TARBIYACHI-PEDAGOGNING KOMPETENTLIK TRANSFORMATSIYASI



**Rasulxo'jayeva M. A.**

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lismetodikasi kafedrasini Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent vazifasini bajaruvchi

**Urinova Z. O'.**

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lismo'nalishi magistratura talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy maktabgacha ta'limga tashkilotlarda tarbiyachining kompetensiyalari, tarbiyachining kasbiy faoliyatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv, pedagogika tarixi bo'yicha tarbiyachining kasbiy faoliyati sifati, shuningdek, maktabgacha ta'limga tashkilotlarda tarbiyachining kasbiy faoliyati bilan bog'liq ilmiy-nazariy masalalar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** nutqning aniqligi, ilmiy bilim, ijodkorlik, kasbiy kompetensiyalar, nutqning sofliji, falsafiy tizimlar.

**Abstract:** The article examines the competencies of a teacher in modern preschool education organizations, the competency-based approach in the professional activity of a teacher, the quality of a teacher's professional activity in the history of pedagogy, as well as scientific and theoretical issues related to the organization of professional transformation of a teacher's personality.

**Key words:** accuracy of speech, scientific knowledge, creativity, professional competencies, purity of speech, philosophical systems.

**Аннотация:** В статье рассматриваются компетенции воспитателя в современных организациях дошкольного образования, компетентностный подход в профессиональной деятельности воспитателя, качества профессиональной деятельности воспитателя в истории педагогики, а также научно-теоретические вопросы, связанные с организацией профессиональной трансформации личности педагога.

**Ключевые слова:** точность речи, научные знания, креативность, профессиональные компетенции, чистота речи, философские системы.

## KIRISH

Maktabgacha ta'limga tashkilotining tarbiyachisi avvalo, bilimli bo'lishi, o'z vazifasini to'g'ri bajara olishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, shu bilan birga umumiyligi va maktabgacha tarbiya pedagogikasi, bolalar psixologiyasi va fiziologiyasi hamda shu kabi fanlarni mukammal egallagan bo'lishi lozim<sup>[3]</sup>.

Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi lozim. Bundan tashqari maktabgacha yoshdagagi bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi quyidagi xususiyatlarda aks etishi kerak:

- Nutqning aniqligi.
- Nutqning irodaviyligi.
- Nutqning sofliji (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib), faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o'zga millatlarga xos so'zlarning o'rinsiz qo'llanilishi), vulgarizm (harakat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rinli bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so'zlash) so'zlaridan xoli bo'lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak.

## ADABIYOTLAR TAHILI

Qadimgi dunyo falsafa tizimlaridan boshlab pedagogikaning fan sifatida shakllanish jarayoni nazariy tafakkurning taxmin va fikrashlaridan ilmiy bilim sari harakat qilish jarayoni yuz beradi.

Har qanday fan tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining obyektiv qonunlari to'g'risidagi bilimlarning yakunidan, jamlashidan ishonarli va umumlashgan bilimlar sistemasidan iborat bo'ladi.

Shaxsni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llarini, qonun-qoidalarni izlaganlar. Darhaqiqat, insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi.

Eng qadimgi zamonalardan to hozirgi kungacha turli tarixiy davrlarda tarbiya, mакtab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o'rganishdan iborat.

Zardusht dini bo'yicha har bir inson hayot yo'lini o'zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o'zi hal qiladi.

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida ta'lim-tarbiya masalalari. VII – VIII asrlarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o'yib bitilgan "Urxun-Enasoy" bitiglarida ham bolalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Pedagog olima A.S.Kaldibekovning fikricha, bu bitigtoshlarda bolalarni baynalmallik ruhida tarbiyalash masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Bitigtoshlarda turk xalqining Tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qultegin, Bilga xoqon, Eltarish xoqon) Tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini chin dildan istaydi.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib mакtabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagi larga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda oddiydan murakkabga tomon bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Tarixiy jarayonlarni o'rganish, bugungi kundagi obyektiv masalani rivojlantirish masalalari qator olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yangicha rang berish mакtabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonning kompetensiyaviy transformatsiyasini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Aynan mакtabgacha yoshdagি bolalarga ta'lim-tarbiya berishda dunyoning turli mamlakatlarda yashab o'tgan pedagog mutafakkirlarning qimmatli fikrlarida tarbiyachining pedagogik jarayonida o'zini qanday boshqarish xususidagi ta'limotlar va ilmiy metodlarni qo'llash haqidagi ilmiy meroslari bizgacha yetib kelgan. Jumladan, Yan Amos Komenskiyning "Ona mакtabi" nomli mакtabgacha tarbiya qo'llanmasi va boshqa bir qancha kitoblari dunyo yuzini ko'rdi.

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi. Tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asosda ta'lim tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi. Shuningdek u mакtab, hunar-texnika bilim yurti va mакtabdan tashqari tarbiya muassasalarini xodimlarini ham nazariy, ilg'or tajribalar bilan quollantiradi. Ota-onalarga yoshlarni to'g'ri tarbiyalash, o'qitishdagi mahoratini yanada takomillashtirish yo'lida amalii tavsiyalar beradi.

"Pedagogika" faniga tavsiif berilganda "ta'lim", "tarbiya" hamda "ma'lumot" degan so'zlarni ishlatalamiz. Bu so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriya tushunchalari deb qaraymiz "ta'lim oluvchi", "o'qituvchi", "usul", "intizom", "jamoa", "irsiyat", "muhit", "direktor" va hokazo tushuncha - mavzular yuzasidan fikr yuritilganda ular haqidagi sifatlarga alohida qaraladi.

So'ngi besh yil ichida mакtabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya mazmuniga innovatsion texnologiyalar kiritilib borishi tarbiyachi shaxsining pedagogik faoliyatining kompetensiyaviy transformatsiyasi paradigmalariga oid tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mакtabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvchilik faoliyatida pedagogik jarayonni tizimlashtirishda kompetensiyaviy yondashuvga ahamiyatlari e'tibor qaratilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamining metodist olomlaridan M.T.Xamdamova malaka oshirish jarayonida mакtabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida olib

borilgan tadqiqot ishida maktabgacha ta'limga tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasi – bu maktabgacha ta'limga tashkilotlarda rahbarning boshqaruv funksiyalarini professional ravishda bajarishga tayyorligi va qobiliyatini belgilab beruvchi bilimlarni, qadriyatlarni, kommunikativ va tashkiliy-uslubiy faoliyat tarkibiy qismlarining yig'indisidagi ajralmas shaxsiy-kasbiy tavsif bo'lib, bu boshqaruv vazifalarini samarali olib borishni ta'minlashini ko'rsatib beradi deb ta'riflaydi.

G.A.Gaynazarova malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish mavzusida olib borgan tadqiqot ishida "kasbiy kompetentlik" tushunchasiga – kasbiy kompetentlik pedagogik vaziyatlarda o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oqilona qo'llash, pedagogik muammolarni hal etishda tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usul va uslublari hamda vositalardan mohirona foydalana olish imkoniyatini beruvchi kasbiy fazilatlar majmuidir" deb mualliflik ta'rifini bayon etadi.

Bu esa, maktabgacha ta'limga yangicha ijodiy sog'lom raqobat muhitini yaratish, tarbiyachi-pedagoglarning motivatsion jarayonini oshirish, ularning kasbiy rivojlantirish, kasbiy faoliyatini yaxshilash, shart-sharoit yaratish zaruratini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiyachi-pedagogning kompetensiyaviy transformatsiyasi pedagogik jarayonni tashkil etishda qadimgi xalq an'anasidan foydalanish ishida ham o'zining mohiyatini yo'qotmagan xalq pedagogikasining g'oyaviy xazinasini va buyuk yutuqlari sifatida epos, ertak, lapar, maqol, tez aytish, topishmoq kabi janrlarni qo'llashda turli metod va vositalar asosida tashkil etishi uning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etadi.

"**Kompetentlik**" tushunchasi ta'limga sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi (1-rasm).

**Kasbiy kompetentlik** – tarbiyachi tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faoliyk ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi.

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, ta'limga oluvchilar va ta'limga jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobji mulqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'limga yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatlilash olish.

**Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli, o'rinni, samarali foydalanish.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

**Innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'limga sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta'limga jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, ta'limga oluvchilar bilan samimiy mulqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobji ta'sir ko'rsata olish.

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

**1-rasm: Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi** [3]



Pedagog-tarbiyachi kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.


- O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari: o'zini o'zi tahlil qilish; o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.
- O'z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi(2-rasm).



2-rasm: O'z ustida ishlashning namoyon bo'lishi

### XULOSA

Tarbiyachining kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog-tarbiyachi o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash mala-kalariga egaligi ham muhimdir. O'zini o'zi baholash (O'O'B) – shaxsnинг o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi. O'zini o'zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi. O'z-o'zini baholash shaxsnинг qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsn bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi(3-rasm).



3-rasm: O'zini o'zi baholash imkoniyatlari

Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi kasbiy faoliyati negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatidir.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlari pedagogik jarayonni tashkil etishda kompetensiyaviy transformatsiya asosida ish ko'rilsa, tarbiyachi – pedagog ta'lism-tarbiya jarayonini tashkil etishning negativ jihatlarini bartaraf eta oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Расулходжаева М. А. Коммуникативная компетентность в деятельности педагога дошкольной образовательной организации. //Национальная ассоциация ученых. – Санкт-Петербург 2022. – Том 1. – №80. – 30-32.
2. Rasulxo'jayeva M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalananish jarayonini tashkil etish trayektoriyasi// Pedagogs Jurnali, 27(1), 39–43. Retrieved from <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/2919>
3. Rasulxo'jayeva M.A. Tarbiyachining kasbiy mahorati va kompetentligi moduli // O'quv-uslubiy qo'llanma // Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. –Toshkent, 2018. – 191 b.
4. Расулхожаева М.А. Роль воспитателей в формировании нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста посредством знакомства с животным миром. Россия город Чита. Журнал "Молодой учёный", 2012.
5. Xamdamova M.T. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lism tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish //Maktabgacha ta'lism tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti// 13.00.07 – Ta'linda menejment. Toshkent, 2020. – 54 b.
6. Gaynazarova. G.A. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Maktabgacha ta'lism va tarbiya nazariyasi va metodikasi //pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati// Namangan davlat universiteti, 2022-yil. 58-b.



**Muharrir:** Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 2-3**

---

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**